

**INTERNET SAYTLARI – OLIY TA’LIM MUASSASASI  
TALABALARIDA AXBOROTLARNI MUSTAQIL IZLAB  
TOPISHNING ASOSIY MANBAI**

**Turobova Ziyoda Shuhratovna**

*Ta’lim va tarbiya nazariyasi va  
metodikasi mutaxassisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada axborot, oliv ta’lim muassasalarida tahlil olayotgan talabalarining axborotlarni mustaqil izlashda yo’l qo’yadigan kamchiliklari va internet saytlar bu borada talabalarga asosiy yordamchi ekanligi hamda talabalar uchun foydalanishga qulay bo’lgan va ishonchli axborotlarga boy internet zamонавиу internet saytlari haqida yoritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Oliy ta’lim muassasasi, talaba, o’quv faoliyat, axborot, izlanish, o’zlashtirish, internet sayt.*

**Annotations:** *In this article, information, shortcomings of students studying in higher education institutions in independent search for information and the fact that Internet sites are the main help for students in this regard, as well as modern Internet sites that are easy to use for students and rich in reliable information, are highlighted.*

**Key words:** *Higher educational institution, student, educational activity, information, research, mastering, internet site.*

Dunyo aholisining soni ortgani sayin, axborot resurslaridan foydalanish texnologiyalari, axborotga bo’lgan talab ham tobora ortib bormoqda. Har bir inson hayotining asosiy qismini axborotlar qamrab oladi. Chunki axborotlarga tayangan holda rejalar tuzib, ularni amalga oshiramiz, muloqot qilamiz, ta’lim olamiz, ish faoliyatimizni yuritamiz xillas, jamiyki faoliyatimiz zamirida axborot yotadi.

Axborot – ijtimoiy, iqtisodiy, tabiiy fanlarning, tafakkur ilmining taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan bilim va ma’lumotlar, kishilarning amaliy faoliyati davomida to‘plagan tajribalari yig’indisi demakdir. Inson axborot oqimi ichra yashar ekan, turli-tuman voqeа, hodisalar va jarayonlarning bir-biriga aloqadorligini, o’zaro munosabati mohiyatini tahlil etish, ko’zdan kechirib va mulohaza qilib ko‘rish maqsadida ko‘pdan-ko‘p isbot va raqamlarga murojat qiladi. Axborot tufayli nazariy bilimlar amaliyot bilan birlashadi.[2]

Axborotlarni erkin olish, ulardan foydalanish, axborot tizimlari va shu qator axborotga oid ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 4-sentabrdagi O‘RQ-373-sonli “Axborotlashtirish to‘g’risidagi” [Qonunida keltirib o’tilgan.](#) [1]

Shu jumladan oliv ta’lim muassasasi talabalarining o’quv va hayotiy faoliyatida ham axborotlarning o’rini beqiyos. Oliy ta’lim muassasasi talabalari o’quv faoliyati davomida bir qancha turli xil bilimlarni egallashlari zarur. Bunda ham ularga axborot katta yordam beradi. Hozirgi kunda talabalar axborotlarni mustaqil izlash, o’zlarining kreativliklaridan kelib chiqqan holda dars jarayoniga o’qituvchi bilan teng holda tayyor bo‘lib kelishlari


## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

talab qilinmoqda. Aslida talabalarimizda axborotlarni mustaqil izlab topish ko'nikmalari qay darajada? Berilgan topshiqlarga kerakli bo'lган ma'lumotlarni ular topa olayaptimi? Afsuslar bo'lsinki talabalarimiz o'qituvchi tomonidan berilgan ma'lumotlarga tayanib qolishgan. To'g'ri, 100% talaba deyolmaymiz. Bu fikrimiz nisbiy albatta. Ammo talabalarda negadir axborotlarni mustaqil izlash ko'nikmalari quvonarli holda emas. Axborotlarni mustaqil izlab topishga harakat qilayotgan talabalarimiz ham keng doirada ma'lumot yig'olmaydi. Bunga sabab nimada? Chunki yangi zamon talabalari axborotlarni faqatgina internet saytlardan qidirib topishadi. Ammo bu borada ularda yetarlicha bilim, ko'nikma mavjud emas. Barcha talabalarimiz bir nechta qidiruv tizimi va saytlarga tayanib qolishgan. Shu o'rinda internet saytlar haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Internetda axborot miqdor signal foizga kengayib bormoqda, buni tartibni qanday saqlab qolish mumkin? Javob oddiy - har bir narsa bir noyob veb-sayt manzili kerak, uning o'ziga xos o'rinni, bo'lishi kerak. Sayt yoki web-sayt inglizcha website: **web** – «*o'rgimchak to'ri, tarmoq*» va **site** – «*joy, segment, tarmoqning bir qismi*» degan ma'nolarni bildiradi.

**Sayt** – bu bitta domen nomidan foydalanadigan, bir-biriga bog'langan web-sahifalar to'plami. Web-saytlar shaxs, guruh, korxona yoki tashkilot tomonidan turli maqsadlarda yaratilishi mumkin. Barcha ommaviy web-saytlar butun dunyodagi internet to'rini tashkil qiladi.

Butun dunyo bo'ylab kompyuter birlashtirishini erta hujjatlashtirilgan tarmoq fikri bo'lган bиринчи veb-sayt 1962-yil ishg'a tushirildi. Keyin 1991- yil 6- avgustda tug'ilgan Tim Berners-Li tomonidan yaratilgan sahifa, World Wide Web tushunchasi. Oddiy qilib aytganda, sayt – bu internetda joylashgan, ba'zi ma'lumotlarni (matn, video, fotosuratlar, hujjatlar, musiqa va hk) o'z ichiga olgan manzil. Internet esa ushbu manzillar to'plamidir.[3]



Shu o'rinda aytishimiz mumkinki, turli axborotlar ichidan kerakli o'quv faoliyatiga mos turini tanlab o'zlashtirish talabidan yuqori malaka talab qiladi. Hozirgi kunda axborotlar okeanidan kerakli ma'lumotlar izlash nihoyatda murakkablashib bormoqda.

## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Talaba bo‘lish - bu o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun cheksiz imkoniyatlarni ochadigan hayotimizning yangi bosqichi. Uni hayotimizning oxirigacha pul ishslash uchun foydalanadigan barcha turdag'i bilimlarni o‘zlashtirish vaqtida deb o‘ylash insonni juda rag‘batlantiradi. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan talabalar o‘quv va hayotiy faoliyat uchun axborotni mustaqil izlab topishlarida ular foydalana oladigan juda ko‘p saytlar mavjud. Noaniqlikdan xalos bo‘lishga yordam berish, hamda talabalarga foydali bo‘lishi uchun ko‘plab foydali veb-saytlarni to‘pladik. Ularning bir nechtasini taqdim etamiz:

**TED-Ed** har qanday mavzu bo‘yicha videoma'ruzalar uchun eng mashhur manbadir. Bu sizning kurs ishlaringiz uchun, original g‘oyalar uchun qimmatli manbadir.

**EdX** - Coursera uchun mukammal alternativ. Coursera bilan solishtirganda asosiy afzalligi shundaki, barcha EdX kurslarining bepul versiyasi mavjud. Bu siz ma'ruzalarni hech qanday to‘lovsiz tinglashingiz yoki o‘qishingiz mumkin degan ma’noni anglatadi. Shunga qaramay, agar siz amaliy topshiriqlaringizni tekshirishingiz kerak bo‘lsa yoki tugagandan so‘ng sertifikat olishni istasangiz, to‘lashingiz zarur.

**Purdue OWL** U yerda siz akademik yozish, grammatika va uslubning barcha turlari bo‘yicha ko‘plab maslahatlarni topishingiz mumkin. Maqolalar o‘rganish darajasi bo‘yicha guruhlangan, bu juda qulay. Magistratura talabalari uchun ko‘plab yozish mavzulari, yozish janrlarining tavsiflari va dissertatsiyani tayyorlash bo‘yicha ko‘rsatmalar bor.

**Layfxaker** - kundan-kunga yaxshilanishni istaganlar uchun salomatlik, texnologiya, munosabatlar, filmlar, sport, fan va boshqalar to‘g’risidagi blog.

**Quora** - bilim almashish uchun ijtimoiy xizmat. Bu [savol-javob](#) platformasi bo‘lib, unda odamlar har xil savollarni berishadi va har kim javob berishi mumkin. Veb-sayt ma’muriyati savollar va javoblarning sifatini kuzatib boradi, ahamiyatsizlarini o‘chiradi.

**Mental Floss** - ming yilliklar uchun onlayn jurnal. Ko‘pincha uning maqolalari qiziqarli faktlar, viktorinalar, aqliy o‘yinlarga qaratilgan. Bu tasodifan ko‘p tomosha qilish uchun eng zo‘r joy.

**Refdesk.com** – bir qarashda bu resurs qandaydir ma’lumot to‘plamiga o‘xshab ko‘rinadi, hamma narsa haqida hamma narsa bor, lekin diqqat bilan qarasangiz, talabalar juda ko‘p qiziqarli narsalarni topadilar. Mashhur lug’atlar va entsiklopediyalar, eng mashhur gazetalar va eng so‘nggi dunyo yangiliklariga havolalarning ta’sirchan ro‘yxatiga arziydi.[4]

Axborot jamiyatining paydo bo‘lishi ta’limning o‘zgarishiga olib keladi. Ta’lim talabga aylanib bormoqda, bu esa insonga axborot olamiga ishonch bilan kirish, uni izlash, tahlil qilish va talqin qilish imkonini beradi. Shu sababli ham oliy ta’lim muassasasi talabalari bilan biz o‘quv va hayotiy faoliyatlar uchun axborotlarni mustaqil izlab topish, qidiruv tizimlari, turli xil ta’lim ga oid saytlar, ulardan qanday foydalanish kerakligi to‘g’risida to‘xtaldik. Davlat ta’lim standarti mutaxassisliklari va yo‘nalishlarining muayyan o‘quv fani (yoki bir necha fan)ga to‘la mos kelgan asosiy o‘quv elektron maxsuloti hisoblanishi, axborotlarni mustaqil izlashda talabalarga yanada aniqroq usullar haqida bir qancha ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Shu bilan bir qatorda oliy ta’lim muassasasi talabalari o‘quv va hayotiy faoliyat uchun ko‘plab ma’lumot olishlari uchun turli xil sayt nomlari hamda ulardan qandat axborotlarni olishlari mumkinligi

**MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS**

haqida ham bir qancha ma'lumotlar asosida ko'rsatmalar berilgan. OTM talabalari ushbu saytlardan foydalanim o'zлari uchun zarur bo'lган va qiziqtirgan ma'lumotlarni tez va oson mustaqil izlab topish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Respublikasining 2014-yil 4-sentabrdagi O'RQ-373-sonli "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonuni;
2. Alimov R.X, Yo'lchiyeva G.T, Rixsimboyev O.Q, Alishov SH.A "Axborot texnologiyasi va tizimlari" Toshkent– 2011
3. <https://oqila.uz/web-sayt-nima>
4. <https://www.terabayt.uz/uz/post/sajt-turlari-haqida>
5. <https://www.sciencedirect.com/>

